

O'RTA OSIYODA YUZAGA KELGAN ILIFBE KITOBLARI VA SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Qo'qon Universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Yo'Idasheva Naimaxon

*Ilmiy maslahatchi Qo'qon Universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi o'qituvchisi Abdullayeva Vazira Qur'onovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar, yangicha yondashuvlar, savod chiqarishda darslik va o'quv qurollarining takomillashuvi yurtimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini chiqarishda alifbe darsliklarning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim jarayoni, pedagogik yondashuv, husnixat, husnixat metodlari, husnixat tamoyillari, o'qitish, usuli savtiya.

*"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat,
yo saodat – yo falokat masalasidir"*
Abdulla Avloniy

Kirish:

Har bir davlatning ravnaqi va salohiyati yoshlarning intelektual bilim malakasiga asoslanadi. Bu borada ta'lim tizimining o'ziga xos bo'lga ta'siri mavjud. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarni bilimli va keng dunyoqarshga ega bo'lib voyaga yetishishida ta'lim tizimidagi rivojlanishlarni alohida e'tirof etish mumkin. Bu borada darsliklarning alohida o'rni mavjud.

O'rta Osiyoda boshlang'ich ta'lim olish qaysi yo'sinda bo'lganligini tarixiy manbalar orqali bilib olish mumkin. Eski mакtabda harflarni nusxaga qarab, alfavit tartibida katta-katta qilib yozish "sarxat" deb atalib, ba'zan sarxat yozish bir-ikki yilga cho'zilgan. Sarxat yozishga o'rgatilganidan so'ng "murakkabot", ya'ni harflami bir-biriga qo'shib yo'zib o'rgatilgan. Murakkabotdan keyin "muqattaot" mashqi, ya'ni bayt va ruboiylar ko'chirib yozish o'rgatilgan. Eski mакtabda muqattaotga juda ko'p vaqt sarf qilingan. Bolalar doskada salomni yozishni bilsalar, ulaming xat-savodi chiqqan hisoblangan. Eski mакtabda chiroyli yozuvga alohida ahamiyat berilgan, ammo husnixat mashg'ulotlari uchun zarur bolgan qoidalar yuzaki tushuntirilgan. Chiroyli yozuvga o'rgatish vaqtida faqat qalamni qanday ushslash qoidalarigina eslatilgan. Qalam bilan bir marta yozilgandan so'ng uning ustida qayta yozishga yo'l qo'yilmagan, bu yozuv qoidalarini saqlashdagi birdan-bir usul bo'lgan. Bolalarga yuqoridagiga o'xshash ayrim yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgani bilan ularning ko'zi bilan qog'oz orasidagi masofaning to'g'ri saqlanishiga

e'tibor berilmagan. Xatto yozish vaqtida nafas olish ham ta'qilangan. Eski maktabda husnixat qoidalarini o'rgatuvchi birdan-bir qo'lanma "Mufradot" kitobi bo'lgan. Domlalar yozishni o'rgatish va husnixat mashq qildirishda shu kitobdan foydalanganlar. Bu vaqtida husnixatga o'rgatishning birdan-bir yo'li ko'chirib yozish ko'nikmasini hosil qilish bo'lgan. Bolalar uchun arab alfavitida yozish juda qiyin bolib, unda biror nuqtaning noo'rin qollanishi yoki nuqtalar sonini kam yoki ortiq bolishi so'zning ma'nosini tubdan o'zgartirib yuborgan. Shuning uchuin, arab yozuvida juda ehtiyot bolib yozish zarur edi.¹

Ko'p asrlik tariximizda XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ta'lim jarayoniga alohida ta'siri mavjudligini ko'ramiz. Ma'lumki, bu davrda O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy holat qoniqarli tusda emas edi. Bu jarayon albatta xalqning bilim olish va jahon sivilizatsiyasiga yuz tutishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib ulgurgan edi.

O'rta Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib xalqning or-nomusi, aql-idroki, zakovat va matonatini ko'rsatib, xalqni bilim olishga undovchi ziyoli, vatanparvar shaxslar yuzaga kela boshladi. Bunday shaxslar jadid atamasi ostida maydonga keldilar.

Jadidchilik harakatining tamal toshi jadid maktablaridir. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzimni tubdan isloh qilish. Bu maqsadga erishish uchun yangi avlodni o'qitish masalalariga alohida e'tibor berish kerakligini ular tushunib yetgan edilar.

Mazkur ilmiy tezis orqali yurtimizda ta'lim tizimida boshlang'ich sinflarni savodxonligini oshirshda alifbe darsliklarini joriy qilish yuzasidan fikr yuritiladi. Mazkur mavzuning bugungi kunda dorzarbli shundaki, ta'lim tizimidagi rivojlanish darajasini baholash va ilk darsliklarning tarixiy nuqtayi nazardan o'rganishdan iboratdir.

O'qitishda ko'rgazmalilik, ifodali o'qish, uning turlari, ularda texnik vositalardan foydalanish, og'zaki va yozma nutq o'stirish usullari kabi ona tili va adabiyot o'qitishning muhim masalalari ishlab chiqildi.

Asosiy qism.

Arab yozuvi asosidagi alifbe kitoblari 8–19-asrlar yozilgan. Islom dini tarqalishi bilan arab yozuvi O'rta Osiyoda asosiy yozuv tizimiga aylandi. Bu davrda Qur'on va dini asarlar orqali arab alifbosi o'rganilgan. Eng qadimgi alifbe kitoblaridan ba'zilari: "Mabda' al-qiroat" – arab harflarini talaffuz qilishni o'rgatgan qo'llanma hisoblanadi. "Qoidai jadid" yoki "Qoidai maktab" – bolalarga savod o'rgatish uchun ishlatilgan alifbe kitobi. Bu alifbe kitoblari asosan madrasalarda o'qitilgan. Chig'atoy tilidagi alifbe va savod o'rgatuvchi kitoblar 14–19-asrlarda yozilgan Chig'atoy tilida yozilgan dini va adabiy asarlar orqali savod o'rgatilgan. Arab yozuvida bo'lsada, mazmuni mahalliy tilga

¹ Husnixat va uni o'qitish metodikasi, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, T-2007, B-10

yaqinlashtirilgan bo‘lgan. Jadidlar davri alifbe kitoblari 19–20 - asr boshida yozilgan. Jadidlar – o‘rta asr uslubidagi ta’limdan voz kechib, zamonaviy dunyoqarashni ilgari surgan islohotchilar edi. Ular: Yangi usul maktablari ochib, fonetik asosda yozilgan alifbe kitoblarini yaratishdi.

Mashhur jadid alifbe kitoblari mualliflari:

Mahmudxo‘ja Behbudiy

Abdulla Avloniy – “Turkiy guliston yoxud axloq”

Munavvar qori Abdurashidxonov – "Alifbo" 1909 yil

Lotin alifbosiga o‘tish 1920-yillarda o‘tilgan. Sovet davrida arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tilgan 1929-yilda rasmiy ravishda. Shu davrda yangi lotin yozuvli alifbe kitoblari chop etila boshlagan. Masalan: “Yangi alifbe” kitoblari maktablarga kirib kelgan.

Ilk alifbe kitoblarining ahamiyati - savodxonlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynagan madaniy birlik va dini bilimlarni mustahkamlashda xizmat qilgan va O‘rta Osiyoning ta’lim tizimini rivojlantirishda asos bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy — jadidchilik harakatining eng yorqin vakillaridan biri bo‘lib, u o‘zbek xalqi uchun ta’limtarbiya, ma’rifat va zamonaviy fikr tarqatishda muhim rol o‘ynagan. Uning alifbe bo‘yicha qilgan ishlari ham o‘ta ahamiyatli hisoblanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning alifbe kitobi to‘liq "Risolai Qoidai Jadida" yoki ba’zan “Yangi usulda” savod o‘rgatish qo‘llanmasi” deb nomlanadi. Taxminan 1901–1903-yillar atrofida yozilgan va bosingan. Bu davr jadid maktablarining paydo bo‘lishi vaqtini bilan mos keladi. Asarning asosiy xususiyatlari - eski uslubdagi madrasalarda faqat Qur’on o‘qitilgan, lekin tushunish, fikrlash o‘rgatilmagan. Behbudiy esa fonetik (tovush asosidagi) o‘qitish metodikasini taklif qiladi. Arab yozuvidagi o‘zbekcha alifbe harflarni talaffuz bilan bog‘lab o‘rgatish yo‘li tanlangan va o‘quvchilar so‘zlar orqali harflarni tushunishga o‘rgatilgan. Diniy va ma’rifiy mazmun - diniy asoslar bilan birga ahloqiy, ijtimoiy saboqlar ham berilgan va bolalarda fikrlash, savol-javob qilish ko‘nikmasi shakllantirilgan. Soddaligi va tushunarli tili bilan ajralib turadi - Oddiy xalq farzandlari tushunadigan tilda yozilgan va amaliy mashqlar, misollar keltirilgan. Behbudiy alifbe kitobining ahamiyati O‘z davrida savodsizlikka qarshi kurashning muhim quroli bo‘lgan va O‘zbekiston tarixida birinchi zamonaviy alifbe darsligi hisoblanadi. Jadid maktablarining asosiy o‘quv qo‘llanmasi sifatida keng tarqalgan bo‘lib, Bu kitob orqali minglab bolalar ilk marta tez va samarali savod chiqarishni o‘rganganlar.

XX asr boshlarida jadid maktablari uchun ilk darsliklar yaratish ham ko‘proq Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li zimmasiga tushgan. U 1907-1920 yillar orasida o‘nga yaqin turli fanlar bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratgan. Munavvarqorining “Adibi soniy” darsligi “Usuli jadid” maktablarining ikkinchi sinfi uchun o‘qish kitobi sifatida yaratilgan. Muallif darslikning muqaddimasida quyidagilarni yozgan. “Maktabi ibridoiy shogirtlarini alifboden so‘ng ikkinchi sinfda o‘qitmoq uchun mumkin darajada

ochiq til va oson tarkiblar ila yozilishi qiroat kitobidir. Ushbu darslik 1907 - 1916 yillar oralig'ida besh marta nashr qilingan.

Bu borada Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Saidrasul Saidaziziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda kabi pedagoglar maktablar uchun o'quv qo'llanma va darsliklar yaratdilar. Turkistonda yangi usuldagagi maktablarni ochilishida Munavvarqori Abdurashidxonovning o'rni juda katta bo'lgan. U 1901 yilda Toshkentning Shayxovand Tahur, keyinchalik boshqa dahalarda ham birinchi yangicha maktablarni ochishga erishdi. Bu maktablar "usuli jadid" maktablari deb yuritila boshladи. Munavvarqori Abdurashidxonov bunday maktablarga kundalik o'quv-tarbiyaviy ishlari uchun dastur va o'quv darsliklar yaratishishlariga bel bog'ladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1907 yilda yangi usuldagagi maktablar uchun "Adibi avval" darsligini yaratadi. Mazkur darslik o'zbek tili va yozuvini deyarli ilk bor alifbolaridan bo'lib, bu darslik boshlang'ich sinf o'quvchilaiga mo'ljallangan.

Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" darsligi 3 qismdan iborat bo'lib dastlabki 2-17 betlar alifbo davrini tashkil etadi. Alifbo muallifi bu qismni "xurufi munfasl" ya'ni o'zidan keying harflarga qo'shilmaydigan harflardan boshlagan. Bu albatda, o'qish va yozish malakasini hosil qilishda yosh bolalaga ancha yengillik tug'diradi, chunki bu harflar so'z boshida, o'rtasida va oxirida bir hil shaklga ega.

Agar "Ustodi avval" ni Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adabi avval" alifbosi darsligi bilan solishtiradigan bo'lsak, Saidrasul Saidazizovning alifbosi o'quvchi bolalar uchun ancha murakkabligiga guvoh bo'lamiz. Bu nimada ko'rindi? Yuqorida aytib o'tganimizdek Saidrasul Saidazizov harflarning o'xshashligi, shaklan bir hilligiga qarab guruhlashtirmaydi.

Ko'p hollarda o'quvchilar uchun shaklan qiyin harflar oldinga o'tib qolgan. Saidrasul saidazizov usuli savtiya- tovush metodini birinchi bo'lib o'zbek maktablariga olib kirgan va alifbo darsligi yaratish jarayoniga tatbig' qilgan ulug' pedagogdir. "Usuli jadid" maktablariga, shu jumladan Munavvarqri Abdurashuidxon o'g'li maktabiga, odatda 8 yoshdan 12 yoshgacha bo'lган o'g'il bolalar o'quv yilining boshida qabul qilingan. Har bir qabul qilingan bolaga va ota-onasiga maktabdagi tartib intizom, qonun – qoida, o'quvchi darsddan tashqarida o'zini qanday tutishi, o'qituvchilarga va o'rtoqlari bilan qanday munosabatda bo'lishi, o'quv qurollarini qanday saqlashi, oylik mакtab puli haqida malumot berilgan.

Ismatulla Rahmatullayev 1883-yilda Samarqand shahrining Rajabamin qishlog'ida kambag'al bog'bon oilasida tug'ilgan. Uning otasi shu qishloqdagi boylarning uzumzorlari va bog'larida yollanib ishlagan.

Atoqli olim M.Fattoyevning ma'lumot berishicha, Ismatulla Rahmatullayevning savod chiqarishi va yetuk pedagog bo'lishida Abduqodir Shakuriy oilasining hissasi katta bo'lgan. Jumladan, yosh Ismatullaga xat-savodni Abduqodir Shakuriyning onasi Bobi Roziya o'rgatgan edi.

Ismatulla Rahmatullayev 1915-yilda pedagogik tajribalariga tayangan holda, qolaversa, ilg‘or rus pedagoglari va yozuvchilari bo‘lmish K.D.Ushinskiy va L.N.Tolstoylar ta’siri ostida “Alifbe ta’limi” kitobini yozadi.

Ismatulla Rahmatullayev o‘z xotiralarida ushbu kitobni tuzish va tahrir etishda adib Sadriddin Ayniyning katta yordam bergenligini alohida qayd etib o‘tgan. Kitobning kirish qismida muallif Ismatulla Rahmatullayev tez va osonlik bilan savodli bo‘lish borasida o‘zining maslahatlarini yosh o‘quvchilarga bergen holda “Har bir savodsiz kishi g‘ayrat va tirishqoqlik bilan ushbu alifboden foydalansa, ozgina vaqt ichida o‘qiydigan va yozadigan bo‘lib qoladi” deb ta’kidlagan. Qayd etish kerakki, kitob tovush-harf metodi asosida yozilgan bo‘lib shu boisdan ham bolalar tez fursatda savodli bo‘la olishgan.

Shu bilan birga, muallif tomonidan kitobning muqova qismiga: “Johil farzandning gunohi ota-onaning zimmasidadir” va “Bilim – yorug‘likdir, nodonlik – qorong‘ulikdir” kabi ibratl so‘zlar yozilgan. Ismatulla Rahmatullayevning ushbu kitobi 46 betdan iborat bo‘lib, 90 soat dars uchun mo‘ljallangan edi. Alifbo analiz va sintez metodi asosida tuzilgan bo‘lib, u o‘zlashtirilishi oson bo‘lgan tovush va harflar bilan boshlanib, keyin murakkabroq ma‘lumotlar bilan yakunlanadi.

Alifbo 3 qismdan iborat. Birinchi qismda harf elementlarini yozish bo‘yicha mashqlar, ikkinchi qismda harflarning turli ko‘rinishlari va uchinchi qismda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hikoya va she’rlar berilgan.

Muallif dastlab, o‘quvchilarga arab harflarining yozilishi va o‘qilish turlari, hamda harflarning so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida keladigan shakllari xususida ma‘lumot beradi.²

Xulosa

Darhaqiqat, pedagogika tarixini kuzatar ekanmiz, bevosita yoshlar tarbiyasini hayot va mamot masalasi darajasida qaralishi hozirgi ijtimoiy - siyosiy hayotimizdagagi ajib bir o‘xshahslik va yaqinlikni his etish mumkin. Ma‘lumki, jamiyatda ta’lim jarayoniga berilayotgan e’tibor har bir davlatning rivojlanish pog’onasini ko’rsatib beruvchi omil sanaladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida ta’lim jarayonini sifatini yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta’lim texnologiyalarini kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

XIX asrning II yarmida umumta’lim maktablarida boshlang ‘ich sinflaida “Alifbe” daslklarini yuzaga kelishi bilan ta’lim tizimiga yangi islohotlar kiritilishiga olib keldi. Maktablarda darslarning dastur asosida o‘qilishi yo’lga qo‘yildi. Bu kabi ta’lim tizimidagi yangiliklar keying davr pedagogikasining rivojlanishiga zamin yaratib berdi.

² <https://oyina.uz/uz/article/2518>

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva, G.Mamatova va boshqalar, Husnixat va uni o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, T, 2007.
2. S.Matchonov, Y.Bakiyeva, X.G ‘ulomova va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qitish metodikasi, darslik, “Ishonchli hamkor” nashriyoti, T,2021.
3. Abdullayeva, V. (2023). XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA’LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLER. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 841-843.
4. Abdullayeva, V. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 888-891
5. Quronovna, V. A. (2023). YUSUF XOS HOJIBING “QUTADG ‘U BILIG” ASAR MATNIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO ‘LLANILISH SINONIMIYALARI. *Международный журнал научных исследователей*, 3(2)..
6. Quronovna, A. V. (2024). The Sematico-Paradigmatic Structure of Phraseological Units in the Work” Qutadgu Bilig. *International Journal of Scientific Trends*, 3(5), 27-34.
7. Quronovna, A. V. (2023). YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING O‘RGANILISHI HAMDA ASARDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 174-179.
8. Abdullayeva, V. Q. (2023). YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING TIL XUSUSIYATLARI, UNDA FRAZEOLOGIK IBORALARНИ QO‘LLANILISHI TADQIQI. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).